

## 2020-yil yanvar-iyul oylarida Toshkent shaharida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Butun dunyoda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu yerda, xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

### 2020-yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi -  
42 714,1 mld. so'm



Xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar  
ulushi - 74,3 %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari  
hajmining o'sish sur'atlari - 105,9 %

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

---

**2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

---


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni - 67 163 birlikda

Ularning umumiyligi  
sonidagi ulushi -  
74,3 %

O'tgan yilning shu davriga  
nisbatan o'sish sur'atlari -  
115,9 %



**2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi – 74,3 %, sanoat – 16,7 %, qurilish - 8,1 % ga yetdi va atigi 0,9 % i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissiga to'g'ri keldi.

**2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (36,1 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 5,4 % ga teng bo'ldi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019-yil 1-avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 57,9 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 32,9 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,8 %, tashish va saqlash - 5,6 %, axborot va aloqa - 5,2 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,5 % hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar - 44,0 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

## 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 85,2 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, yirik tashkilotlar ulushi 14,8 % ni tashkil etdi

*Dastlabki ma'lumotlar*

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik  
subyektlari to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 8 687 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 57 207 tani tashkil etdi va o'sishi esa 17,9 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligining sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 71,3 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 69,6 % ekvivalentida qayd etildi.**

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta ahamiyatga egadir.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiatи, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab va o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'r'a, 2020-yil yanvar may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 42 714,1 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 6 286,9 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlarda ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari, shuningdek, tadbirdorlik faoliyatni integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanadi.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki korxonalarga, shuningdek, jismoniy shaxslarga - yakuniy iste'molchilarga taqdim etiladigan xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**  
**(2020-yil yanvar-iyul oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>42 714,1</b>	<b>105,9</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	3 918,6	117,6
Moliyaviy xizmatlar	13 644,0	132,6
Transport xizmatlari	4 119,9	84,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 622,2	95,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 389,1	78,7
Savdo xizmatlari	10 707,1	100,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1 619,0	93,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 781,1	111,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	709,0	83,2
Ijara xizmatlari	653,3	90,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	225,4	94,1
Shaxsiy xizmatlar	454,4	86,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 350,7	97,5
Boshqa xizmatlar	2 142,4	81,1

*Dastlabki ma'lumotlar*

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi an'anaviy faoliyat turlari bilan cheklanib qolmay, jamoat hayotidagi ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilib boradi va iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar orqali chambarchas bog'liqdir.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televideniya va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek, zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,  
2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan % da  
(2020-yil yanvar-iyul oylarida)**



Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (132,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (111,4 %), savdo xizmatlari (100,1 %) qayd etildi.

Yuqori bo'limgan o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (83,2 %), boshqa xizmatlar (81,1 %), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari (78,7 %) belgilandi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

### Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-iyul oylarida)



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 63,6 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, saqlash va yordamchi transport xizmatlari 31,1 % tashkil qiladi.

Temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar – 2,4 %, kuryerlik va pochta faoliyati ulushi esa 2,9 % ga yetdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaqidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**Savdo** bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarni zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi 25,1 % ni tashkil etib, bu 10 707,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

### Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020-yil yanvar-iyul oylarida)

#### Savdo xizmatlari - 100,0 %



Joriy davrda ulgurji savdo xizmatlari ulushi, umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb yarim qismiga, aniqrog'i 47,6 % ga to'g'ri keladi.

Chakana savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 45,4 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 7,0 % ni tashkil etdi.

## Moliyaviy xizmatlar (2020-yil yanvar-iyul oylarida)



2020-yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 13 644,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 780,8 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 32,6 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

### **Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020-yil yanvar-iyul oylarida)**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,4 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,1 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 4,6 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruva uchun katta imkoniyatlar ochadi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yil yanvar-iyul oylarida)**



## Dastlabki ma'lumotlar

2020-yil yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 3 918,6 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 117,6 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.



### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-iyul oylarida)



2020-yil yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1 781,1 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,4 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yil yanvar-iyul oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 78,7 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 93,3 mlrd. so'mga kamaydi va 1 389,1 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 3,3 % ni tashkil etdi.



**1 389,1 mld. so'm** Xizmatlar hajmi

**3,3 %** Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

**2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan:**

**78,7 %** O'sish sur'ati

**93,3 mlrd. so'mga** Hajmning kamayishi



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020-yil yanvar-iyul oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 77,8 % bilan ustunlik qiladi. 2020-yil yanvar-iyul oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 22,2 % ni tashkil etdi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Bugun respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziatriya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-iyul oylarida)

2020-yil yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 8,7 mlrd. so'mga kamaydi va 709,0 mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 1,7 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,2 % ni tashkil etdi.




*Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istiklalariga qarab differensiyalanadi.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib, respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

Xizmatlarning umumiyligi hajmida Yunusobod tumaning ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 17,7 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020-yil yanvar-iyul oylarida)



Dastlabki ma'lumotlar

Eng katta ulush Mirobod (16,3 %), Chilonzor (11,5 %), Yashnobod (11,5 %), Mirzo Ulugbek (10,1 %) va Shayxontohur (9,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Yakkasaroy (6,3 %), Olmazor (5,5 %), Uchtepa (4,5 %), Sirg'ali (4,1 %) va Bektemir (2,7 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** 2019-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi hajmida Yunusobod tumanining ulushi 17,3 % ni tashkil etgan.

Bektemir tumanining ulushi esa eng past - 2,6 % kuzatilgan.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

Ko'rileyotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Yunusobod tumani ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiylajmi o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 263,2 mlrd. so'mga oshdi va 7 580,5 mlrd. so'mga yetdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Mirobod (6 978,1 mlrd. so'm), Chilonzor (4 907,7 mlrd. so'm), Yashnobod (4 901,2 mlrd. so'm) va Mirzo Ulug'bek (4 308,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

## **Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yil yanvar-iyul oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>42 714,1</b>	<b>105,9</b>
tumanlar:		
Bektemir tumani	1 164,5	107,0
Mirzo-Ulug'bek tumani	4 308,9	109,9
Mirobod tumani	6 978,1	109,2
Olmazor tumani	2 338,6	101,2
Serg'ali tumani	1 751,1	70,6
Uchtepa tumani	1 929,9	97,0
Chilonzor tumani	4 907,7	117,9
Shayxontohur tumani	3 958,9	100,1
Yunusobod tumani	7 580,5	110,6
Yakkasaroy tumani	2 684,0	90,7
Yashnobod tumani	4 901,2	119,7
Tumanlardan tashqari	210,8	92,6

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotida zamonaviy tarkibiy o'zgartirishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy shart hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**71-203-88-15**